

**DIQQAT TANQISLIGI SINDROMLI BOLALARНИ MAKTABGA  
TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**

***Omonova Maktuba Muqumjon qizi***

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti, Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv yo'nalishi magistranti.*

**Annotatsiya.** Diqqat tanqisligi va giperaktivlik sindromi (DTGS) bo'lgan bolalar uchun matabga tayyorlanish jarayoni alohida yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqolada DTGS bo'lgan bolalarning xatti-harakati va o'qish jarayoniga moslashuvini yengillashtirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar, shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** diqqat tanqisligi, giperaktivlik, pedagogik yondashuvlar, matabga tayyorlarlik, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy ko'nikmalar.

### **Kirish**

Diqqat tanqisligi sindromi (DTS) — bu bolalarda diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik va impulsiv xatti-harakatlar bilan namoyon bo'ladigan rivojlanish buzilishi. Bu holat ta'lim olish jarayonida bolalar va pedagoglar uchun turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, DTS bo'lgan bolalarni matabga tayyorlashda maxsus pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va qo'llash muhimdir.

DTGS bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularning ehtiyoj va rivojlanish darajasini hisobga olish zarur. Maxsus dasturlar bolalarning diqqatini jamlash, xulq-atvorini boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim (Nabihev va Abduqodirova, 2024). O'yinlar bolalarning diqqatini jalb qilish va qiziqishini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Interfaol metodlar esa bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi (Omonova, 2023). Ota-onalarga DTS haqida to'g'ri ma'lumot berish, ularni pedagogik jarayonga jalb etish va uy sharoitida bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar berish orqali bolalarning matabga moslashuv jarayonini yaxshilash mumkin (Nabihev va

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Abduqodirova, 2024). Aniq jadval va qoidalar bolalarning xulq-atvorini boshqarishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim olish jarayonida tartib va qoidabuzarliklarni kamaytiradi. Bolalarni kichik guruhlarga ajratish orqali ularga individual e‘tibor qaratish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish samarali hisoblanadi.

Diqqat tanqisligi sindromi (DTS) bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash ta’lim jarayonida ularning muvaffaqiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Barkley (2015) tadqiqotlariga ko‘ra, strukturali muhit va individual yondashuv bolalarning diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilaydi. Brown (2020) DTS bo‘lgan bolalarga qaratilgan maxsus treninglar, o‘yinlar va sensor integratsiya mashqlarining samaradorligini ta’kidlaydi. Interfaol metodlar orqali o‘qitish, vizual materiallardan foydalanish va ota-onalar bilan hamkorlik o‘quvchilarni maktabga ijobiy tayyorlashda asosiy omillardandir. Bolalarni ijtimoiy ko‘nikmalar bilan boyitish orqali ularning ta’limga bo‘lgan ishtiyoqi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, deydi Hinshaw (2018).

### **Xulosa**

DTS bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlashda individual yondashuv, o‘yin va interfaol metodlar, ota-onalar bilan hamkorlik va strukturali muhit yaratish kabi pedagogik usullar samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar bolalarning maktabga moslashuvini osonlashtiradi va ularning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida doimiy muloqot va hamkorlik ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nabihev, R. Sh., & Abduqodirova, Sh. Z. Q. (2024). Maktabgacha yoshdagи giperaktiv va diqqat yetishmovchiligi sindromi bo‘lgan bolalar. Образование наука и инновационные идеи в мире, (36), 144-148.
2. Omonova, M. M. Q. (2023). Diqqat tanqisligi sindromli bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik jihatlari. Образование наука

и инновационные идеи в мире, (34), 129-133.

3. Barkley, R. A. (2015). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment (4th ed.). Guilford Press.
4. Brown, T. E. (2020). Smart but Stuck: Emotions in Teens and Adults with ADHD. Jossey-Bass.
5. Hinshaw, S. P. (2018). The ADHD Explosion: Myths, Medication, Money, and Today's Push for Performance. Oxford University Press.